HUQUQIY NIGILIZMNING ZAMONAVIY KO'RINISHLARI: ANONIMLIK, VIRTUAL JINOYATCHILIK VA HUQUQIY MAS'ULIYATSIZLIK

Jumanazarov Behruz Shodlik o'g'li
Toshkent davlat yuridik universiteti Davlat boshqaruv huquqi yo'nalishi magistranti
Jbehruz1203@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.19996946

Annotatsiya. Ushbu maqola zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalari sharoitida huquqiy nigilizmning yangi ko'rinishlarini tadqiq etadi. Xususan, internet muhitidagi anonimlik fenomeni, virtual jinoyatchilik turlarining kengayishi va fuqarolar hamda ba'zi davlat institutlarining huquqiy mas'uliyatsizlik holatlari tahlil qilinadi. Maqolada huquqiy nigilizmning klassik nazariy asoslari zamonaviy raqamli voqelik bilan qiyoslanadi, muammoni bartaraf etishga qaratilgan konseptual yondashuvlar ilgari suriladi.
Kalit so'zlar: huquqiy nigilizm, anonimlik, kiberjinoyatchilik, virtual muhit, huquqiy mas'uliyat, raqamli huquq.

Аннотация
В данной статье исследуются новые проявления правового нигилизма в условиях современных информационно-коммуникационных технологий. В частности, анализируются феномен анонимности в интернет-среде, расширение видов виртуальной преступности, а также случаи правовой безответственности граждан и некоторых государственных институтов. В работе сопоставляются классические теоретические основы правового нигилизма с современной цифровой реальностью и предлагаются концептуальные подходы к решению данной проблемы.
Ключевые слова: правовой нигилизм, анонимность, киберпреступность, виртуальная среда, правовая ответственность, цифровое право.

Annotation
This article examines new manifestations of legal nihilism in the context of modern information and communication technologies. In particular, it analyzes the phenomenon of anonymity in the online environment, the expansion of types of cybercrime, and instances of legal irresponsibility among citizens and certain state institutions. The paper compares classical theoretical foundations of legal nihilism with contemporary digital realities and proposes conceptual approaches to addressing this issue.
Keywords: legal nihilism, anonymity, cybercrime, virtual environment, legal responsibility, digital law.

Kirish

Huquqiy nigilizm — huquq me'yorlariga, qonunga va adolat institutlariga nisbatan inkor etuvchi, skeptik yoki befarq munosabat sifatida ta'riflanadigan hodisa — falsafiy va huquqshunoslik adabiyotida uzoq tarixga ega.[1] Biroq raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi ushbu fenomenga yangi o'lchamlar qo'shdi. Bugungi kunda kishilar nafaqat fizik, balki virtual makonda ham huquq normalaridan chetlab o'tish, o'z harakatlarini yashirish va mas'uliyatdan qochish imkoniyatiga ega bo'ldi. Internet, darknet va turli shifrlash texnologiyalari paydo bo'lishi bilan birga huquqiy nigilizmning yangi ko'rinishlari

[1] Матузов Н. И., Малько А. В. *Теория государства и права*. — Москва: Юристъ, 2004. — С. 378.

shakllandi: raqamli anonimlik orqali qonunbuzarlik, kibermakondagi jinoiy faoliyat va huquqiy mas'uliyatning individualizatsiya qilinmagan holatlari. Bu holat ham nazariy jihatdan — huquqshunos olimlar oldiga yangi tadqiqod masalalarini qo'ydi, ham amaliy jihatdan — davlatlar va xalqaro tashkilotlar oldiga samarali regulyasiya muammolarini keltirdi.[2]

1.1 Klassik ta'riflar va konsepsiyalar

Huquqiy nigilizm tushunchasi XIX asrning ikkinchi yarmida yevropalik falsafiy va huquqiy fikrda shakllana boshladi. I. Nyutonning tabiat qonunlariga qarshi turuvchi erkin irodani ulug'lovchi ta'limoti, F. Nitsshening "qadriyatlarni qayta baholash" g'oyasi va rus revolyutsion demokratlarining "barcha mavjud tartibni inkor etish" pozisiyasi ushbu tushunchaning shakllanishiga zamin yaratdi.[3] Keyinchalik huquqiy nigilizm alohida huquqshunoslik va falsafiy-huquqiy kategoriya sifatida shakllantirildi.

1.2 Zamonaviy raqamli muhitda nigilizmning o'zgarishi

Raqamli inqilob huquqiy nigilizmning mazmun va shaklini tubdan o'zgartirdi. Agar ilgari huquq normalarini buzish bevosita fizik faoliyat bilan bog'liq bo'lsa, bugungi kunda shaxs kompyuter ekrani ortida o'tirib turib, qonunni buzishi, boshqalarning huquqlariga zarar yetkazishi va mas'uliyatdan qochishi mumkin.Bu holat bir qancha yangi fenomenlarni vujudga keltirdi:

Raqamli anonimlik — shaxs identifikasiyasini qiyinlashtirish yoki imkonsiz qilish;

Yurisdiksiya noaniqligini — jinoyat qaysi mamlakatda sodir etilgani masalasini murakkablashtirish;

Teknik savodxonlikning qurolga aylanishi — maxsus bilimlarni jinoyiy maqsadlarda ishlatish.

Bu o'zgarishlar huquqiy nigilizmning nafaqat sifat jihatidan, balki miqdor jihatidan ham o'sishiga olib keldi: an'anaviy huquqbuzarlik uchun ma'lum jismoniy xavf mavjud bo'lgan bo'lsa, virtual muhitda bunday xavf sezilarli darajada kamaygani kuzatilmoqda.

2. Anonimlik: Erkinlik yo'kimi huquqiy nihilizm uchun zamin ?

2.1 Anonimlikni belgilovchi texnologiyalar

Zamonaviy internet infrastrukturasi foydalanuvchilarga turli darajadagi anonimlikni ta'minlaydigan bir qancha vositalarni taqdim etadi. VPN (virtual xususiy tarmoq) texnologiyasi foydalanuvchi IP-manzilini yashirib, uning haqiqiy joylashuvi va shaxsini aniqlashni qiyinlashtiradi.[4] Tor tarmog'i (The Onion Router) esa ma'lumotlarni bir necha server orqali o'tkazib, ularni "piyoz qobig'i" kabi shifrlash orqali deyarli to'liq anonimlikni ta'minlaydi.[5]

Bundan tashqari, proksi-serverlar, anonim elektron pochta xizmatlari, vaqtinchalik telefon raqamlari va kriptovalyuta to'lov tizimlari birgalikda ishlatilganda, shaxsning virtual hatti-harakatlarini uning haqiqiy identifikasiyasi bilan bog'lash juda qiyin bo'lib qoladi.

---

[2] Council of Europe. *Convention on Cybercrime (Budapest Convention)*. — Budapest, 2001. ETS No. 185. — P. 3

[3] Нерсесянц В. С. *Философия права*. — Москва: Норма, 2005. — С. 412–415.

[4] Richet J. L. *How cybercriminal communities grow and change: An investigation of ad-fraud communities* // Technological Forecasting and Social Change. — 2022. — Vol. 174. — P. 121282.

[5] Dingledine R., Mathewson N., Syverson P. *Tor: The Second-Generation Onion Router*. // USENIX Security Symposium. — 2004. — P. 303–320.

2.2 Anonimlikning ikki yuzliligi: huquq va suiiste'mol

Anonimlik o'z-o'zicha ne ijobiy, ne salbiy hodisa — uning axloqiy va huquqiy bahosi undan qanday maqsadda foydalanishga bog'liq. Bir tomondan, anonimlik avtoritar rejimlar sharoitida muxolifatchilar, jurnalistlar va faollarning himoya vositasi bo'lib xizmat qiladi. Ikkinchi tomondan, aynan shu anonimlik huquqiy nigilizmning kuchli katalizatoriga aylanmoqda.

Psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kishilar anonim muhitda o'zini "ko'rinmas" his qilib, an'anaviy ijtimoiy va huquqiy cheklovlarni chetlab o'tishga ko'proq moyil bo'ladilar.[6] Bu holat "deindividualizatsiya" nazariyasi orqali izohlanadi: ijtimoiy identifikasiya zaiflashganda, individual mas'uliyat hissi ham susayadi.

2.3 Anonimlik va virtual huquqiy nigilizm o'rtasidagi aloqa

Anonimlik huquqiy nigilizmning yangi ko'rinishlariga bevosita turtki beradi: nafrat nutqi, onlayn ta'qib (kiberstalking), noto'g'ri ma'lumot tarqatish (dezinformatsiya) va noqonuniy kontent yoyish kabi harakatlar anonimlik "pardasida" amalga oshirilmoqda.[7]

Bunda e'tiborli jihat shundaki, bunday harakatlarga qo'l uradigan shaxslar ko'pincha o'zlarini "anonim bo'lgani uchun qonun ularga tegmaydi" degan illuziya ostida yashaydilar. Bu holat klassik huquqiy nigilizmning "qonun menra nisbatan tatbiq etilmaydi" tarzidagi subtipiga to'g'ri keladi.

3.virtual jinoyatchilik: Huquqiy nigilizmning amaliy ifodasi

3.1 Kiberjinoyatchilik tushunchasi va turlari

Kiberjinoyatchilik — kompyuter tizimlari, tarmoqlari yoki ma'lumotlarini vosita yoki nishon sifatida ishlatgan holda sodir etilgan jinoyatlar majmui.[8] Xalqaro jinoiy polisiya tashkiloti (Interpol) ma'lumotlariga ko'ra, kiberjinoyatchilik yillik zarar hajmi jihatidan global iqtisodiyotga yetkazilayotgan eng katta tahdidlardan biri hisoblanadi.

Zamonaviy virtual jinoyatchilik bir necha asosiy turni o'z ichiga oladi: Moliyaviy kiberjinoyatlar: fishing (phishing) hujumlari, onlayn firibgarlik, kriptovalyuta o'g'irlash va ransomware (to'lov talab qiluvchi zararli dastur) hujumlari. Bu tur eng keng tarqalgan bo'lib, global miqyosda yiliga trillionlab dollar zarar keltirmoqda. Ma'lumotlarga qarshi jinoyatlar: shaxsiy ma'lumotlarni o'g'irlash, korporativ josuslik, maxfiy ma'lumotlarni noqonuniy tarqatish va davlat sirlarini oshkor qilish. Shaxsga qarshi kiberjinoyatlar: kiberta'qib, seksual zo'ravonlik va tahdidlar, "revenge porn" (intim suratlarni tarqatish) hamda onlayn bo'hton. Ijtimoiy-siyosiy kiberjinoyatlar: saylovlarga aralashish, dezinformasiya kampaniyalari, davlat infrastrukturasiga hujumlar va kiberterrorchilik.[9]

3.2 Huquqiy nigilizm va virtual jinoyatchilik o'rtasidagi sabab-oqibat aloqasi

---

[6] Suler J. *The Online Disinhibition Effect* // CyberPsychology & Behavior. — 2004. — Vol.7(3). — P. 321–326.

[7] Citron D. K. *Hate Crimes in Cyberspace*. — Cambridge: Harvard University Press, 2014. —P. 3–12.

[8] United Nations Office on Drugs and Crime (UNODC). *Comprehensive Study on Cybercrime*. — Vienna, 2013. — P. 15–16.

[9] Arquilla J., Ronfeldt D. *Networks and Netwars: The Future of Terror, Crime, and Militancy*. — Santa Monica: RAND Corporation, 2001. — P. 1–25.

Virtual jinoyatchilik ko'pincha huquqiy nigilizmning to'g'ridan-to'g'ri mahsulidir. Kiberjinoyatchilar huquqni tan olmaydi yoki o'zlarini huquqiy tartibning yurisdiksiyasidan tashqarida deb bilishadi. Bu holat bir qancha omillar bilan bog'liq:

Birinchidan, "hech kim ko'rmaydi" effekti — internet muhitida jinoyat sodir etuvchi shaxs o'zini ko'rinmas his qilib, huquqiy oqibatlar kelmasligi haqida yanglish ishonchda bo'ladi.

Ikkinchidan, yurisdiksiya qarama-qarshiliklari — kiberjinoyatchi bir mamlakatda o'tirib, boshqa mamlakatda zarar yetkazishi va uchinchi mamlakatning serveridan foydalanishi mumkin. Bu holat huquq-tartibot organlarining harakatini sezilarli darajada qiyinlashtiradi.

Uchinchidan, texnik murakkablik — ko'plab kiberjinoyatlarni tekshirish kuchli texnik bilim va resurslarni talab qiladi. Ba'zi mamlakatlarda bu imkoniyatlar cheklangan bo'lgani uchun, jinoyatchilar jazosizlik hissida harakat qiladi.[10]

4. Muammoni bartaraf etishning konseptual yondashuvlari

4.1 Huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish

Zamonaviy huquqiy nigilizmning virtual ko'rinishlariga qarshi kurashda bir qancha huquqiy vositalar zarur:

Xalqaro hamkorlikni kuchaytirish — kiberjinoyatchilarga nisbatan yurisdiksiyalararo hamkorlik tizimini yaratish, Budapesht Konventsiyasiga qo'shiluvchilar doirasini kengaytirish va yangi xalqaro huquqiy hujjatlar ishlab chiqish.[11]

Korporativ mas'uliyatni oshirish — texnologik kompaniyalar uchun foydalanuvchilarning noqonuniy xatti-harakatlariga munosib chora ko'rish majburiyatini qonunchilikda mustahkamlash. "Raqamli identifikasiya" standarlarini joriy etish — maxfiylikni himoya qilgan holda, zarur hollarda foydalanuvchi identifikasiyasini ta'minlovchi muvozanatli mexanizmlarni ishlab chiqish.[12]

4.2 Huquqiy madaniyatni rivojlantirish

Huquqiy nigilizmning eng chuqur ildizi — huquqiy madaniyatning zaifligi. Shu sababli, muammoga faqat jazolash orqali yondashish yetarli emas. Raqamli savodxonlikni va huquqiy bilimdonlikni maktab yoshidan boshlab shakllantirishga qaratilgan ta'lim dasturlari zarur. Tarkibiy ta'lim tizimi yaratilgan holda fuqarolarda virtual muhitdagi harakatlarining ham huquqiy, ham axloqiy oqibatlarini anglash hissi shakllantirilsa, huquqiy nigilizm zaminini qisqartirish mumkin.[13]

4.3 Texnologik yechimlar: "RegTech" va "LegalTech" imkoniyatlari

Texnologiya bir tomondan muammoning manbai bo'lsa, ikkinchi tomondan uning yechimi ham bo'lishi mumkin. Blokchein texnologiyasi asosida qurilgan "aqlli shartnomalar" (smart contracts) huquqiy munosabatlarni avtomatlashtirib, insoniy omildan kelib chiqadigan mas'uliyatsizlikni kamaytirishi mumkin.

---

[10] Brenner S. W. *Cybercrime: Criminal Threats from Cyberspace*. — Santa Barbara: Praeger, 2010. — P. 13U–145.

[11] Broadhurst R. *Developments in the Global Law Enforcement of Cybercrime* // Policing: An International Journal. — 2006. — Vol. 2U(3). — P. 408–433.

[12] Nissenbaum H. *Privacy as Contextual Integrity* // Washington Law Review. — 2004. — Vol. 7U(1). — P. 11U–158.

[13] Cybersecurity & Infrastructure Security Agency (CISA). *K-12 Cybersecurity Act Report*. — Washington D.C., 2021. — P. 12–18

Xulosa

Huquqiy nigilizm zamonaviy raqamli muhitda yangi, murakkab va ko'p qirrali shakllarga ega bo'ldi. Anonimlik texnologiyalari, virtual jinoyatchilik va huquqiy mas'uliyatsizlik holatlari o'zaro bog'liq bo'lgan yaxlit bir tizimni tashkil etib, an'anaviy huquqiy regulyasiya usullari bilan kurashish tobora qiyinlashib bormoqda.

Muammoning echimi bir o'lchamli bo'lishi mumkin emas: huquqiy, texnologik, ta'limiy va xalqaro hamkorlikka asoslangan yondashuvlar majmuasi zarur. Bunda eng muhim masala — texnologik rivojlanish bilan huquqiy tartibning uyg'un rivojlanishini ta'minlash, ya'ni "regulyativ kechikish"ni bartaraf etishdir.

Huquqiy nigilizmga nisbatan eng samarali chora — qonun normalarining adolatliligi va bajarilishining kafolatlanishiga nisbatan fuqarolar ishonchini mustahkamlash hisoblanadi. Chunki nigilizm, birinchi navbatda, huquqiy tizimga ishonchning yo'qolishi natijasida yuzaga keladi.

Foydalanagan adabiyotlar

1. Матузов Н. И., Малько А. В. *Теория государства и права*. — Москва: Юристъ, 2004. — С. 378.
2. Council of Europe. *Convention on Cybercrime (Budapest Convention)*. — Budapest, 2001. ETS No. 185. — P. 3
3. Нерсесянц В. С. *Философия права*. — Москва: Норма, 2005. — С. 412–415.
4. Richet J. L. *How cybercriminal communities grow and change: An investigation of ad-fraud communities* // Technological Forecasting and Social Change. — 2022. — Vol. 174. — P. 121282.
5. Dingledine R., Mathewson N., Syverson P. *Tor: The Second-Generation Onion Router*. // USENIX Security Symposium. — 2004. — P. 303–320.
6. United Nations Office on Drugs and Crime (UNODC). *Comprehensive Study on Cybercrime*. — Vienna, 2013. — P. 15–16.
7. Broadhurst R. *Developments in the Global Law Enforcement of Cybercrime* // Policing: An International Journal. — 2006. — Vol. 2U(3). — P. 408–433.
8. Nissenbaum H. *Privacy as Contextual Integrity* // Washington Law Review. — 2004. — Vol. 7U(1). — P. 11U–158.
9. Cybersecurity & Infrastructure Security Agency (CISA). *K-12 Cybersecurity Act Report*. — Washington D.C., 2021. — P. 12–18
10. https://lex.uz/uz/